

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
TABIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

zavodi ta'sirida o'zgarishi	260
M.Sh.Xidirov	
Geographical approaches to improving the territorial structure of service sectors in Kashkadarya region	265
D.X.Jo'raqulova, X.J., Jurakulov B.B. Malikov, Sh.A. Ravshanov	
Janubiy-g'arbiy O'zbekistonda antropogen landshaftlar shakllanishida g'orlarning tutgan o'rni (Surxondaryo havzasi misolida)	271
N.D.Qosimov	
Sangzor havzasining turizm salohiyatini oshirish imkoniyatlari va tabiiy resurslar tahlili	276
X.A.Abduxakimova, A.A.Nematov	
Janubiy Farg'ona och tusli bo'z tuproqlarining agrokimyoviy xossalari va unumdorligi	280
S.A.Ibroximova, D.M.Xoldarov, B.M.Qo'chqorov	
Sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarning agrokimyoviy xossalari	287

GEOGRAFIYA

Y.I.Axmadaliyev, O.I.Abduganiev	
Biologik xilma-xillik bo'yicha kunming-monreal global dasturini (GBF) O'zbekistonda amalga oshirishning geoeologik asoslari	293
N.A.Esanov	
Shaharchalarning joylashgan o'rni iqtisodiy-geografik rivojlanish omili (Termiz tumani misolida)	307
M.T.G'oziyeva	
Zominsuv havzasining rekreatsiya resurslardan oqilona foydalangan holda turizmni rivojlantirish yo'llari	313
M.T.G'oziyeva	
Zomin suv havzasida turizmni rivojlantirishiga ta'sir etuvchi tabiiy geografik omillar	317
Sh.M.Sharipov, N.R.Samatova	
Toshkent viloyatida jar eroziyasi xavfi: DEM va GIS tahlili	322
B.A.Dadajonov, A.A.Abdubannopov	
Aqlli ko'chat ekish mashinasi – yashil kelajak uchun innovatsiya	331
O.I.Abduganiev, D.B.Kosimov, Z.I. Mamirova	
Landshaftlardagi bog'lanishni modellashtirish asosida ekologik tarmoqlarni shakllantirish	337
L.M.Saydaliyeva	
Sakral landhsftlarning hosil bo'lishi va funksiyalari	346
A.A.Xamidov	
Farg'ona vodiysi tabiat komplekslarining xx-asrda tadqiq qilinishi natijalari	354
B.A.Dadajonov, A.A.Abdubannopov	
Agroai drone – sun'iy intellektli aqlli qishloq xo'jaligi monitoring platformasi	357
U.T.Egamberdiyeva, A.B.Bozorboyev	
Xovos tumani aholisining joylanishi va demografik rivojlanish xususiyatlari	361
H.N.Naimov	
Shimoliy Farg'ona tog'oldi hududi landshaft-ekologik sharoitining hozirgi holati va uni baholash	367
J.A.Ismatov	
O'zbekiston monoshaharlari aholisi sonining dinamikasi	372
O.I.Abduganiev, T.D.Komilova	
MSPA-Mcr modeli asosida ekologik karkasni shakllantirish va optimallashtirish mezonlari	379
R.Y.Xoliqov, O.A.Qo'chqorov, S.B.Saydullayeva	
Landshaftlarning ekologik holatining o'zgarishi va ularni baholash:(Farg'ona vodiysi yirik shaharlar misolida)	395
B.R.Rapiqov	
Norin-Sirdaryo havzasidagi suv omborlaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari	399

EKOLOGIYA



UO'K: 314.15:911.37(575.1)

**XOVOS TUMANI AHOLISINING JOYLANISHI VA DEMOGRAFIK RIVOJLANISH
XUSUSIYATLARI****ОСОБЕННОСТИ РАЗМЕЩЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ И ДЕМОГРАФИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ
ХАВОССКОГО РАЙОНА****CHARACTERISTICS OF POPULATION DISTRIBUTION AND DEMOGRAPHIC DEVELOPMENT
OF KHAVOS DISTRICT****Egamberdiyeva Umrinisa Tursunqulovna¹** ¹O'zMU Geografiya va geoaxborot tizimlar fakulteti, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrası dotsenti**Bozorboyev Alisher Botirjon o'g'li²** ²O'zMU Geografiya va geoaxborot tizimlar fakulteti, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrası**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Sirdaryo viloyati Xovos tumani aholisining demografik holati va rivojlanish tendensiyalari, tumanning demografik ko'rsatkichlar bo'yicha viloyatdagi o'rni statistika ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda aholining umumiy soni, shahar va qishloq aholisi taqsimoti, yosh-jins tarkibi hamda tabiiy va mexanik harakati statistik ma'lumotlar asosida o'rganildi. Shu bilan birga, aholi soni o'zgarishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar, migratsiya jarayonlari, aholi zichligi tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье проанализированы демографическое состояние и тенденции развития населения Хавосского района Сырдарьинской области, а также место района в области по основным демографическим показателям на основе статистических данных. В исследовании изучены общая численность населения, распределение городского и сельского населения, половозрастная структура, а также естественное и механическое движение населения на основе статистических материалов. Кроме того, проанализированы социально-экономические факторы, миграционные процессы и плотность населения, влияющие на изменение численности населения.

Abstract

This article analyzes the demographic situation and development trends of the population of Khavast District of Syrdarya Region, as well as the district's position within the region based on key demographic indicators using statistical data. The study examines the total population, the distribution of urban and rural residents, the age-sex structure, as well as the natural and mechanical movement of the population on the basis of statistical materials. In addition, the socio-economic factors, migration processes, and population density influencing changes in the population size were analyzed.

Kalit so'zlar: aholi soni, aholi zichligi, tabiiy o'sish, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari, yosh-jins tarkibi, migratsiya jarayonlari, mehnat resurslari, demografik rivojlanish, aholi joylanishi, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, aholi dinamikasi, demografik siyosat, hududiy rivojlanish.

Ключевые слова: численность населения, плотность населения, естественный прирост, показатели рождаемости и смертности, возрастно-половой состав, миграционные процессы, трудовые ресурсы, демографическое развитие, размещение населения, социально-экономические факторы, динамика населения, демографическая политика, региональное развитие.

Key words: population size, population density, natural increase, birth and death rates, age and gender composition, migration processes, labor resources, demographic development, population distribution, socio-economic factors, population dynamics, demographic policy, regional development.

KIRISH

Mamlakat hududlarida aholi sonining o'sishi, uning yosh-jins tarkibidagi o'zgarishlar, migratsiya iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishining demografik asosi hisoblanadi. Xovos tumanida ham aholi sonining ko'payishi, tabiiy o'sish jarayoning yuqoriligi, mehnat resurslarining ko'pligi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda alohida o'rin tutadi. Shuning uchun aholining tabiiy o'sishi, yosh

tarkibi va migratsiya jarayonlarini ilmiy tahlil qilish tumandagi barqarorlikni ta'minlash, mehnat bozorini boshqarish va hududiy rivojlanish strategiyasini belgilashda katta ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki tumandagi demografik jarayonlarni ilmiy asosda tahlil qilish orqali hududdagi demografik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan.

Ishning maqsadi Xovos tumanidagi aholining yosh tarkibi, jinsiy tarkibi, tabiiy va migratsiya jarayonlarini o'rganish orqali tuman demografik jarayonidagi qonuniyatlarni aniqlash, iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarga ta'sirini o'rganishdan iboratdir.

Ishning vazifasi. So'nggi yillarda aholi sonini tabiiy o'sishi, mexanik harakati ko'rsatkichlarini taqqoslash orqali demografik jarayonlarni tahlil qilish;

-Tumandagi shahar va qishloq hududlaridagi aholi zichligi va joylashuv xususiyatlarini tahlil qilish;

-Aholi sonining infratuzilma obyektlarini shakllanishi, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishiga ta'sirini o'rganish;

-Demografik o'zgarishlar bilan bog'liq muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

-Mehnat resurslaridan samarali foydalanish va infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Xovos tumani aholisi va hududiy joylashuvi ishning obyektini tashkil qiladi. Xovos tumanida aholining tabiiy va mexanik o'sishi, yosh-jins tarkibi, migratsiya jarayonlari hamda aholi joylanishiga ta'sir etuvchi geografik omillar ishning predmeti hisoblanadi.

Har bir mamlakatda bo'lgani kabi, O'zbekistondagi demografik vaziyat ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, Markaziy Osiyoda eng ko'p aholiga ega bo'lgan O'zbekistonda ayollar va erkaklar nisbati nisbatan mutanosib, yoshlar aholining katta qismini tashkil etadi va mehnatga layoqatli aholi salohiyati yuqori. Mamlakat aholisi asosan Toshkentning g'arbiy va shimoli-g'arbiy hududlarida parokanda joylashgan bo'lib, Farg'ona vodiysi esa zich aholi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLARNING TAHLILI BA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasida aholining tug'ilish, o'lim, migratsiya jarayonlarini O.Ata-Mirzayev, G.Asanov, M.Bo'riyeva, Z.Tojiyeva lar o'rgangan bo'lsa, aynan Sirdaryo viloyati hududidagi demografik holatni K.E.Egamqulov, L.Karshibayeva lar o'rgangan. Ular viloyatda aholining hududiy tarqalishi, milliy, yosh-jins tarkibi va aholining tabiiy o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi o'lim jarayonlariga alohida e'tibor qaratganlar.

Ushbu maqolani nazariy asosini iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanlari, demografiya nazariyasi hamda hududiy tizimlarni tahlili tashkil etadi. Shu bilan birga maqolani yozishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-2026-yillarda Sirdaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 07.05.2022-yildagi 242-son qarori kabi davlat dasturlari nazariy va amaliy asos sifatida qabul qilindi.


Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi. Statistik tahlil usuli yordamida tuman aholi soni, tug'ilish, o'lim, migratsiya ko'rsatkichlari bo'yicha rasmiy ma'lumotlar tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil usuli bilan tuman ko'rsatkichlari viloyat tumanlari ko'rsatkichlari bilan solishtirildi. Tahlil va sintez usuli bilan jamlangan ma'lumotlar umumlashtirilib, xulosalar chiqarildi. Grafik usullari bilan aholi soni, tarkibidagi o'zgarishlar diagrammalarda ko'rsatildi.

Tadqiqot ishida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari, Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi va Xovos tumani xokimligi ma'lumotlari, ilmiy maqolalardan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbekiston aholisida tug'ilish darajasi demografik jarayonlar dinamikasida yetakchi omil sifatida namoyon bo'lib, aholi tabiiy o'sishining asosiy manbai hisoblanadi [1]. Sirdaryo viloyatida ham shu jarayon kuzatiladi.

GEOGRAFIYA




1-rasm. Sirdaryo viloyati aholisi soni, ming kishi (2025 -yil 1-yanvar holatiga).

Xovos tumani aholisi soni 104,8 ming kishi bo'lib, 11.2 foiz ko'rsatkich bilan viloyatda Boyovut (142.7ming), Sirdaryo tuman (140.2 ming) laridan keyin 3 o'rinda turadi. Bundan ko'rinib turibdiki tuman Sirdaryo viloyatida aholi soni bo'yicha yirik markazlardan biri bo'lib, viloyatning demografik salohiyatida muhim ulushga ega [19].

Quyida berilgan ma'lumotlar Xovos tumani aholisining 2010-2025-yillar oralig'idagi o'zgarishni ko'rsatadi, shu yillar oralig'ida 23.5 ming kishiga (29.16 %) ko'paygan. Bu 15 yillik oralig uchun barqaror o'sishni ko'rsatadi. O'rtacha yillik o'sish sur'ati 1.72 % ga teng bo'lib, eng yuqori o'sish 2011-yilda 3.47 % va 2024- yilda 2.76 % to'g'ri keladi. Tumandagi aholining o'sishi "yosh aholi" modelini ko'rsatadi.

Xovos tumani aholi zichligi shuni ko'rsatadiki bir kilometr kvadratga 169 kishi to'g'ri keladi. Aholi asosan markaz va transport yo'llariga yaqin hududlarda joylashgan. Uzoq hududlarda aholi ancha siyrakligini ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalaridan foydalanish imkoniyati bilan bog'lash mumkin. Jahon banki hisobotlarida O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari tezlashib, shahar aholisi ulushining o'sishi va iqtisodiy faollikning hududiy jamlanishiga olib kelganiga e'tibor qaratiladi [14].

Aholining yosh tarkibida o'smirlar va yosh avlod ulushining yuqori bo'lishi mamlakat uchun demografik salohiyatdan foydalanish imkonini yaratadi [5].



2-rasm. Xovos tumani aholisi soni, ming kishi. 2025 -yil 1-yanvar.

Xovos tumani aholisini yosh guruhlari bo'yicha tahlili shuni ko'rsatadiki 0-15 yoshdagi bolalar 33185 kishini tashkil qilib umumiy aholining 31,8 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich

tumanda tug'ilish darajasining yuqoriligini va aholi soni barqaror o'sishini ta'minlanishini ko'rsatadi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, bolalarga xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanishiga talab ortib boradi. Maktabgacha muassasalar, maktablar, bolalar poliklinikalariga yuklama ko'payadi.

Tumanda 16 yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlar 22399 kishini tashkil etib jami aholining 21,5 foiziga teng. Aholining 38.7 foizi 30-59 yoshdagilar (40286 kishi) bo'lib, iqtisodiy faol aholining asosiy qismini tashkil qiladi. 60 yosh va undan katta yoshdagilar soni oz bo'lsa-da, ular uchun sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar tarmog'ini mustahkamlash talab etiladi.

O'zbekiston Markaziy Osiyodagi eng yuqori tug'ilish darajasiga ega mamlakatlardan biri bo'lib, bu aholining tabiiy o'sishini barqaror musbat ko'rsatkichda ushlab turmoqda [11]. Tumanda tug'ilish yillar kesimida turg'un emas eng past ko'rsatkich 2022- yilda (2177 kishi), eng yuqori ko'rsatkich 2023-yilda (2681kishi) kuzatilgan. Tug'ilish barqaror yillik o'rtacha 2.4-2.6 ming kishiga to'g'ri keladi.


O'lim darajasi ancha barqaror bo'lib 400-460 atrofida. Har yili aholi soni tabiiy yo'l bilan kamida 1.7-2.3 ming kishiga ortgan. Sog'liqni saqlash tizimida o'limni past ko'rsatkichi aholi salomatligi yaxshi ekanligini ko'rsatadi.

Hududlarning aholisini o'rganganda migratsiya jarayonlariga ham e'tibor qaratiladi. Migratsiya aholining tabiiy o'sishi bilan birgalikda aholi sonini belgilab beradi. Ichki va tashqi migratsiya ma'lum bir hududda aholining sonini o'sishi, kamayishi va tug'ilish, o'lim ko'rsatkichlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Migrantlarning kirib kelishi ko'p bo'lgan hududlarda mehnat resurslari salmog'i ortadi. Migratsiya zamonaviy jamiyatlar demografik tarkibiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, aholining yosh va jins tuzilmasida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltiradi [2].

Migrantlar tarkibida 18-35 yoshdagi ishchi kuchining salmog'i yuqori bo'ladi. Migratsiya jarayonlari aholining yosh va jinsiy tarkibiga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatib, mehnat resurslari tuzilmasida nomutanosiblikka olib kelmoqda [3]. Ko'chib ketish yuqori bo'lgan hududlarda qariyalar salmog'i ortib boradi. Qishloq joylardan aholining ko'chib ketishi natijasida ishchi kuchining yetishmasligi va iqtisodiy faoliyatning pasayishiga sababchi bo'ladi. Mehnat migratsiyasi jinsiy nomutanosiblikni kuchaytiradi, ayniqsa erkak migrantlar ulushining yuqoriligi aholi jins tarkibida sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ladi.[6]

Sirdaryo viloyatida ham ko'chib kelish va ko'chib ketish jarayonlarini tahlili shuni ko'rsatadiki ko'chib kelishga nisbatan ko'chib ketish ko'proqni tashkil qiladi, migratsiya saldosi minus ko'rsatkichga ega.

2024-yil ma'lumotlariga ko'ra viloyatda eng katta migratsion harakat Sirdaryo shahriga va Boyovut tumaniga to'g'ri keladi. Sirdaryo viloyatida ko'chib ketishga nisbatan ko'chib kelish yuqoridir. Ko'chib ketish va ko'chib kelish ko'rsatkichlari bo'yicha Sayxunobod tumani oxirgi o'rinda turadi.



3-rasm. Sirdaryo viloyatidagi migratsiya jarayonlari, kishi, 2024-yil.

GEOGRAFIYA

Xovos tumanidagi ko'chib kelish va ko'chib ketish migratsiya jarayonlarini viloyat tumanlari bilan solishtiradigan bo'lsak ko'chib ketish bo'yicha viloyatda uchinchi o'rinda, ko'chib kelganlar soni bo'yicha yettinchi o'rinda turadi. Bu ko'rsatkich tumanga ko'chib kelish boshqa tumanlarga nisbatan ancha kamligini ko'rsatadi.

Berilgan jadval 2010–2024-yillar oralig'ida Xovos tumanidagi migratsiya jarayonlarini ko'rsatadi.

1-Jadval.

Xovos tumani migratsiya ko'rsatkichlari, kishi

Yil	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Sof migratsiya
2010	489	899	-410
2012	574	796	-222
2014	509	830	-321
2016	519	735	-216
2018	894	998	-104
2020	711	1014	-303
2022	637	872	-235
2024	604	954	-350

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki ko'chib ketganlar ko'chib kelganlardan ko'proq (har bir yilda manfiy sof migratsiya). Bu tumanning "chiqish migratsiyasi" ustunligini ko'rsatadi, Ko'chib ketishga ko'proq iqtisodiy va ijtimoiy omillar sabab bo'ladi. Tumanda 2010-2024-yillarda jami 4937 kishi kelgan, 7098 kishi ketgan, natijada -2161 kishi yo'qotilgan. Manfiy sof migratsiya tuman aholisi o'sishini susaytiradi, 2010-2024-yillarda aholi 80,6 mingdan 102,3 mingga faqat tug'ilish yuqoriligi sababli o'sgan. Tumanda migratsiyani manfiyligini kamaytirish uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, infratuzilmani yaxshilash kerak bo'ladi.

Aholining milliy tarkibi deganda ma'lum bir hududda turli millat vakillarining yashashi tushuniladi. Aholining milliy tarkibi aholi sonining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki turli millatlar tug'ilish ko'rsatkichlari xar xil bo'ladi, bu aholining migratsion harakatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Hudud aholisi turli millatlardan tashkil topgan bo'lsa an'analar, urf odatlar ham turlicha bo'ladi. Shu nuqtai nazardan Xovos tumani aholisining etnik tarkibini tahlil qilish hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini o'rganishga yordam beradi.

2-Jadval.

Xovos tumani aholisining milliy tarkibi.

Aholining etnik tarkibi	Jami	
Ko'rsatkichlar	Jami soni	shundan, ayollar soni
o'zbek	83840	39131
qoraqalpoq	1	1
rus	225	121
qirg'iz	399	191
qozoq	196	158
turkman	38	18
tojik	9261	4722
tatar	227	207
uyg'ur	3	2

Tuman aholisining 89 foizi o'zbeklardan, 9,8 foizi tojiklardan, 1,2 foizi qolgan millat vakillaridan tashkil topgan. Shu bilan birga rus, qirg'iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq va uyg'ur millat vakillari ham istiqomat qiladi.

Demografik dividend iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish uchun tarixda kamdan-kam uchraydigan imkoniyatlardan biri bo'lib, mamlakat uni faqat aholi yosh tarkibidan oqilona foydalangan taqdirda qo'lga kiritishi mumkin [7].

Aholi bandligi tuman iqtisodiyot tarmoqlarini qay darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. U ishchi kuchining samarali foydalanayotganligini, rasmiy va norasmiy sektorlardagi ulushini tahlil

qilish imkoniyatini yaratadi. Korxona va tashkilotlarda ishlovchilar tuman iqtisodiyotning asosiy ishchi kuchini tashkil etadi, ularning ulushi ancha yuqori. Qishloq xo'jaligi, ayniqsa chorvachilik tuman iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblanib, qishloq aholisining asosiy daromad manbai hisoblanadi. Mavsumiy ishlar bilan bandlar ham ko'pchilikni tashkil qiladi.

XULOSA

Demografik o'zgarishlar ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini shakllantiruvchi asosiy omilga aylangan. Bu o'zgarishlar mehnat resurslari tuzilishi, ta'lim siyosati va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda [16].

Tuman aholisi tarkibi, migratsiya jarayonlarini o'rganishda shunday xulosa qilish mumkin. Tuman aholisi oxirgi 15 yilda barqaror ko'paymoqda. Tug'ilish ko'rsatkichlari yuqori darajada bo'lib, tabiiy o'sish viloyat ko'rsatkichidan yuqori.

Tumanda aholining joylashuvi notekis bo'lib, aholi asosan markazi va irrigatsiya tizimlari atrofida zich joylashgan, cho'l va sug'orilmaydigan hududlarda ancha siyrak.

Yoshlar ulushi ancha yuqoriligi, mehnat resurslari salohiyati yuqoriligi ko'rsatish bilan birga ish o'rinlari, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni talab qiladi.

Yuqoridagi tahlil natijalari Xovos tumani demografik holatidagi bir qator ijobiy natijalar bilan birga hal etilishi zarur bo'lgan masalalarni ham ko'rsatdi. Kelgusida hudud demografik salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalar beriladi.

-Aholining o'sish sur'ati va yosh tarkibini hisobga olgan xolda ta'lim, tibbiy xizmat, uy joy bilan ta'minlash choralari ko'rish lozim;

-Mehnat resurslaridan oqilona foydalanish uchun yangi ishlab chiqarish obyektlarini qurish orqali ish joylarini tashkil etish;

-Aholi siyrak yashaydigan hududlarda transport infratuzilmasini yaxshilash kerak;

-Aholining madaniy, tibbiy, huquqiy savodxonligini oshirish uchun internet tarmoqlari bilan to'liq qamrab olish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ahmedov, K. A. Development strategy of new Uzbekistan for 2022-2026/ The American Journal of Social Science and Education Innovations. 2023-05-08, Pages 5-9
2. Castles, S., Miller, M. J. *The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World*. New York: Guilford Press. 2005. 537-542
3. Ivakhnyuk, A. *Eurasian Migration in the 21st Century*. Cham: Springer 2022.
4. Karimova, D. Urbanizatsiya va shahar aholisi tarkibidagi o'zgarishlar. *O'zbekiston Ijtimoiy Fanlar Jurnal*, 2023 4(1), 52–60.
5. Lee, R., & Mason, A. *Population Aging and the Generational Economy: A Global Perspective*. Edward Elgar Publishing. 2011. 220-223
6. Мукомель, В. *Гендерные аспекты миграции в Евразии*. Москва: РСМД. 2022.
7. National Research Council. *The Future of the Demographic Dividend in Developing Countries*. Washington, DC: The National Academies Press. 2012.
8. Солиев, А. *Ўзбекистон географияси* Тошкент: 2014. Университет. – 404 б.
9. Солиев, А., Назаров, М. *Ўзбекистон ҳудудларининг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши*. Тошкент: Мумтоз Сўз. 2010– 352 б.
10. Солиев, А., Назаров, М. (2021). *Ўзбекистон қишлоқлари*. Тошкент.
11. United Nations. *World Population Prospects 2024*. New York: UN DESA, Population Division.
12. United Nations Population Fund (UNFPA). *Youth in Central Asia Report*. New York: UNFPA. 2023
13. World Bank. *Mortality Rate Review: Central Asia*. Washington, DC: World Bank. 2023
14. World Bank. *Urbanization Review: Uzbekistan*. Washington, DC: World Bank. 2024
15. World Health Organization (WHO). (2023). *Global Health and Mortality Data Report 2023*. Geneva: WHO.
16. Yun, X., & Liu, M. (2022). Demographic Transitions and Social Change in Central Asia. *Journal of Population Studies*, 59(2), 115–134.
17. Review.uz *Sirdaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi*. 2023
18. O'zbekistonda mehnat va bandlik (2019–2023). (2024). Toshkent.–152 b.
19. Sirdaryo Viloyati Statistika Boshqarmasi. (2023).
20. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography>